

# **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Amaliy fanlar fakulteti Psixologik xizmatlar ko'rsatish markazi 2025-2026 o'quv yillari davomida bajargan ishlari bo'yicha**

## **H I S O B O T**

### **1. Markaz faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.**

Psixologik markaz O'zbekiston Respublikasining quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etilgan va faoliyat yuritadi:

- Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi 472-sonli «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori;

- Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 iyuldagi 577-sonli «O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida» gi qarori.


Markazda Pedagogika va psixologiya kafedrası "Psixologiya" ixtisosligi bo'yicha oliy psixologik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar malakaviy tavsif talabari asosida ko'rib chiqilgan tayyorgarlik dasturiga ega bo'lgan, har xil psixodagnostik, psixoprofilaktik, psixokorreksion metodlarni qo'llay oladigan, psixologik maslahat bera oladigan mutaxassis pedagoglari faoliyat olib bormoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Departamentida ([UNDESA](#)) Barqaror Rivojlanish Maqsadlari bo'limi (DSDG) BRMLar va ular bilan bog'liq tematik masalalar, shu jumladan suv, energetika, iqlim, okeanlar, urbanizatsiya, transport, fan va texnologiyalar uchun moddiy yordam ko'rsatish va salohiyatni oshirish bo'yicha ishlarni ta'minlash maqsadida "Pedagogika va psixologiya" kafedrası professor-o'qituvchilari katta o'qituvchilari R.Xaydarova va D.Botirovalar "Salomatlik va sog'lom turmush tamoyillari", "Ratsional ovqatlanish asoslari" mavzularida davra suhbatı o'tkazildi.




Kafedra katta o'qituvchisi Shahnoza Sharafova tomonidan "Reproduktiv salomatlik davra suxbati, "Jismoniy mashg'ulotlarning ayollar salomatligiga ijobiy ta'siri" seminar-trening o'tkazildi. To'g'arak mashg'uloti davomida ishtirokchilarga

salomatlik va sogʻlom turmush tamoyillari, ratsional ovqatlanish asoslari boʻyicha davra suhbatlari, psixologik terning oʻtkazildi.



Ushbu toʻgaraklar haftaning juma kunlari muntazam oʻtkazib kelinmoqda va bepul shaklda oʻtkazildi.

Amaliy fanlar fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida oʻqituvchilar tomonidan “Mutahassislika kirish” fani doirasida “Psixologiya” ixtisosligi boʻyicha 1 kurs talabalari bilan muntazam ravishda psixologik mashgʻulotlar oʻtkazilgan.



Professor Sh.X.Abdullaeva rahbarligida “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida professor-oʻqituvchilari ishtirogida “Psixologiya” ixtisosligi boʻyicha 1 kurs magistrantlar “Neirografika” dasturiga jalb qilinganlar.



## **2. O'quv-amaliy faoliyat hamda talaba va magistrantlarni jalb qilish**

Markaz faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri psixologiya mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarni amaliy faoliyatga o'quv rejaga binoan jalb qilishdir. Markaz ishiga quyidagilar muntazam ravishda jalb qilinadilar:

- Amaliy fanlar fakulteti «Psixologiya» bo'limining 1–2-bosqich talabalari;
- Amaliy fanlar fakulteti «Psixologiya» bo'limining 1–2-bosqich magistrantlari.

Hisobot davrida bajarilgan tadbirlar:

- «Pedagogika va psixologiya» kafedrası o'qituvchilari tomonidan Amaliy fanlar fakulteti «Psixologiya» bo'limining 1–2-bosqich talabalari uchun o'quv amaliyoti tashkil etildi va o'tkazildi. Amaliy mashg'ulotlarga 1–2-bosqich magistrantlari ham jalb qilindi.

- «Pedagogika va psixologiya» kafedrası o'qituvchilari tomonidan T. Sattarov rahbarligida muntazam ravishda tashqi mijozlar (psixologik yordam so'rab murojaat qilgan shaxslar) uchun seminarlar va psixologik treninglar o'tkazildi.

- Psixologik markaz to'garak mashg'ulotlari doirasida quyidagi mavzularga bag'ishlangan davra suhbatlari va treninglar o'tkazildi:

- sog'lom turmush tarzi va psixologik farovonlik tamoyillari;
- stressga chidamlilik va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish.

Barcha tadbirlar talabalar va magistrantlarning faol ishtirokida o'tkazildi, bu ularga o'qishning dastlabki bosqichlaridayoq psixologik ish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini berdi.





### **3. Oylar bo'yicha moliyaviy natijalar**

Hisobot davrida Psixologik markaz tomonidan 2026 yil boshidan hozirgi kunga qadar quyidagi miqdorda mablag'lar jalb qilindi: · Yanvar – 3 300 000 so'm; · Fevral – 4 400 000 so'm; · Mart – 4 400 000 so'm; · Aprel – 4 400 000 so'm; · May – 4 400 000 so'm;

Hisobot davri uchun jami jalb qilingan mablag': 20 900 000 (yigirma million to'qqiz yuz ming) so'm.

Jalb qilingan mablag'larning taqsimlanishi:

- Jami summaning 50 foizi (10 450 000 so'm) professor-o'qituvchilarning ish haqi jamg'armasiga yo'naltirildi (amaliy mashg'ulotlar, seminarlar, treninglar va maslahat ishlari uchun).
- Qolgan 50 foizi universitetning konsalting markaziga o'tkazilgan.

**Psixologik markaz direktori**

**T.Sattarov**